



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2026
1-сон



SERVIS

ILMIY-AMALIY JURNAL 2026 yil, 1-soni

Muassis: Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan 2008 yil 31 dekabrda
0561-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

O‘zR OAK Riyosatining 19.03.2017 y., 239/5-sonli qarori bilan e‘tirof etilgan

Tahririyat a‘zolari:

Mas‘ul kotib:

i.f.d., prof. M.Q.Pardaev

Muharrirlar:

i.f.d., dotsent F.A.Safarov
PhD, dotsent I.M.Pardaeva
PhD, I.Sh.Ernazarova

Texnik muharrir:

katta o‘qituvchi F.O.O‘roqov

Korrektor:

PhD, dotsent v.b.
T.I.Yahyoyev

Sahifalovchi:

PhD, dotsent v.b.
H.N.Ochilova

1 yilda 4 marotaba
chop etiladi.

**O‘zbekiston hududida
tarqatiladi.**

Tahririyat manzili:

140100, Samarqand shahar,
Amir Temur ko‘chasi, 9-uy,

tel.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

faks: +998(366)231-12-53
el.pochta:

samisiservis@mail.ru

Tahrir hay‘ati raisi:

M.E.Po‘latov – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektori,
i.f.d., professor

Tahrir hay‘ati raisi o‘rinbosari:

M.Q.Pardayev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

Tahrir hay‘ati a‘zolari:

M.M.Muxammedov – SamISI professori, iqtisod fanlari
doktori

D.R.Zaynalov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

O.M.Murtazayev – TDIUSF direktori, iqtisod fanlari doktori,
professor

M.R.Boltabayev – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

R.X.Ergashev – QarMII professori, iqtisod fanlari doktori

B.K.G‘oibnazarov – iqtisod fanlari doktori, professor

I.S.To‘xliyev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

K.B.Urazov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

Q.J.Mirzayev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

B.I.Isroilov – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

G.M.Shodiyeva – SamISI professori v.b., iqtisod fanlari doktori

S.N.Toshnazarov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

R.N.Normaxmatov – SamISI professori, texnika fanlari doktori

A.Bektemirov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

O.M.Pardayev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

M.T.Alimova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

Z.Dj.Adilova – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

Sh.O.Quvondiqov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

L.N.Xalikova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

F.A.Safarov – SamISI dotsenti, iqtisod fanlari doktori

A.M.Karimova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

I.B.Mattiyev – SamISI professori, pedagogika fanlari doktori

B.F.Boronov – SamISI professori v.b., iqtisod fanlari doktori

A.N.Xoliqulov – SamISI professori, iqtisod fanlari nomzodi

X.A.Raximov – SamISI dotsenti, PhD

S.A.Babanazarova – SamISI dotsenti, PhD

H.N.Ochilova – SamISI dotsenti v.b., PhD

I.R.Berdikulova – SamISI dotsenti v.b., PhD

A.Q.G‘apparov – SamISI dotsenti v.b., PhD

Xurshid Azamatovich Yunusov Tadbir va ko‘ngilochar xizmatlarni rivojlantirishda marketing strategiyalaridan foydalanish	154
Hamdam Iris o‘g‘li Allayorov Logistika axborot oqimlarini sun‘iy intellekt asosida optimallashtirish	159
Nodirjon Fayzullayevich Bekbutayev Monopoliyaga qarshi siyosatni amalga oshirishda davlat organi va hududiy boshqarmalar faoliyatining samaradorligi	163
Bekzodjon Sheraliyevich Oblakulov Improving private education customer loyalty and brand trust through the implementation of digital marketing strategies	167
Sadulla Shodiyevich Urazov, Laylo Obidjon qizi Abduraxmanova Ta‘lim muassasalarida tashkiy tuzilmaning boshqaruv samaradorligiga ta‘siri	170
MOLIYA, PUL MUOMALASI VA KREDIT	
Nuriddin Elamonovich Ernazarov Aksiz solig‘ining byudjeti daromadlarini shakllantirishdagi muammolar	174
Шавкат Собирович Олтаев Рақамли иқтисодиёт шароитида суверен фондларни самарали бошқариш масалалари	177
Madina Sanjar qizi Khotamkulova Corporate efficiency as a financial market participant	181
BUXGALTERIYA HISOBI, IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT	
Komil Vaxromovich Urazov, Qahramon Hamidovich Vaxobov Pochta xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalar xarajatlari hisobining o‘ziga xos xususiyatlari	186
Ortiq Eshnazarovich Ernazarov Xizmatlar sohasini chiziqli ekonometrik modellashtirish asosida tahlil qilish va prognozlashtirish	191
Тўлқин Исматулла ўғли Яхёев Қурилиш хизматлари кўрсатувчи корхоналарда 15 сон МХХС асосида даромадларни тан олиш	198
Jamshidbek Axmad ug‘li Abdurasulov Korxonalarni qayta tashkil etishning o‘zgartirish shaklida buxgalteriya hisobi va hisobotini MHXS asosida takomillashtirish	202
TA‘LIM, KADRLAR TAYYORLASH VA PEDAGOGIKA	
Умар Худайбердиев Мактабгача ва мактаб таълими - илм ва муваффақият калитидир	209
Bexzod Nematillayevich Gapparov OTM kichik guruhlarda temperamentga yo‘naltirilgan pedagogik model	212
Iltom Begmatdulobovich Mattiyev Chet tillarni o‘rganishda pedagogik texnologiyalarning o‘rni	216
Anvar Maxkamovich Soatov Talabalar temperamentiga mos akademik yuklama taqsimotining samaradorligi	221
E‘TIBORGA MOLIK MASALALAR	
Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев Рамазон луғати Бахт нима?	225

Anvar Maxkamovich Soatov – Jizzax politexnika instituti “Arxitekturaviy loyihalash” kafedrasida assistenti

TALABALAR TEMPERAMENTIGA MOS AKADEMIK YUKLAMA TAQSIMOTINING SAMARADORLIGI

Annotatsiya. Mazkur maqolada talabalar temperamentiga mos akademik yuklama taqsimotining ta’lim samaradorligiga ta’siri sinov-tajriba asosida tahlil qilinadi. Turli temperamentga ega talabalar misolida yuklama tabaqalashuvining o’zlashtirish darajasi, o’quv faolligi va psixologik holatga ijobiy ta’siri ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so’zlar: temperament, akademik yuklama, ta’lim samaradorligi, tabaqalashgan yondashuv, sinov-tajriba, oliy ta’lim.

Kirish. So’nggi yillarda mamlakatimizda oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, ta’lim sifatini oshirish va talabaga yo’naltirilgan yondashuvni kuchaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, kredit-modul tizimining joriy etilishi, o’quv yuklamalarini maqbullashtirish, mustaqil ta’lim ulushini oshirish, shuningdek, talabalarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etish bo’yicha qator me’yoriy-huquqiy hujjatlar va amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlar ta’lim jarayonida shaxsga yo’naltirilgan pedagogik yondashuvni shakllantirish, talabalar bilimini chuqurlashtirish va ularning akademik samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Temperament va uning ta’lim jarayoniga ta’siri masalasi qadimdan olimlar e’tiborida bo’lib kelgan. Temperament tushunchasining ilk ilmiy asoslari qadimgi yunon tabibi Gippokrat tomonidan ilgari surilgan bo’lib, u inson xulq-atvorini organizmdagi to’rt xil suyuqlik muvozanati bilan izohlagan. Keyinchalik, Galen ushbu nazariyani rivojlantirib, temperamentning sangvinik, xolerik, flegmatik va melanxolik turlarini ajratib ko’rsatgan.

XIX-XX asrlarga kelib temperament muammosi fiziologik asosda tadqiq qilina boshlandi¹. Xususan, Ivan Pavlov oliy nerv faoliyati tiplarini o’rganib, temperamentni nerv tizimining kuchi, muvozanati va harakatchanligi bilan bog’ladi. Uning ta’limotiga ko’ra, nerv jarayonlarining kuchi va barqarorligi o’quv yuklamasini qabul qilish hamda qayta ishlash tezligiga bevosita ta’sir ko’rsatadi.

Shuningdek, shaxs psixologiyasi doirasida Sergey Rubinshteyn hamda Lev Vygotskiy inson psixik rivojlanishida alohida xususiyatlarning, jumladan, temperamentning ahamiyatini alohida ta’kidlaganlar. Vygotskiy ta’lim jarayonida individual yondashuv zarurligini asoslab, o’quv yuklamasi shaxsning rivojlanish zonasiga mos bo’lishi lozimligini ko’rsatib bergan.

Temperamentni eksperimental asosda chuqur o’rgangan xorijiy olimlardan biri Hans Eysenck hisoblanadi. U shaxsning ekstraversiya-introversiya va neyrotizm ko’rsatkichlari asosida temperament modelini ishlab chiqqan. Eysenck tadqiqotlari shuni ko’rsatadiki, introvert tipdagi talabalar uzoq muddatli va yuqori intensivlikdagi yuklamalarda tezroq charchaydi, ekstravertlar esa faol, interaktiv metodlarda yuqori natija ko’rsatadi.

Mahalliy tadqiqotchi Soatov A.M. ning ta’kidlashicha, shaxsning alohida-psixologik xususiyatlari, jumladan temperamentning ta’lim jarayonidagi o’rnini tadqiq etgan. Olim ta’lim samaradorligi o’quvchi shaxsning psixologik xususiyatlarini hisobga olish bilan chambarchas bog’liqligini ta’kidlaydi².

¹ Makhkamovich S.A. The Quality Education For Engineering Graphics Teaching Material Construction //JournalNX. – C. 270-277.

² Soatov A.M. Ta’limda sifat ko’rsatkichlari va bu borada rivojlangan xorijiy mamlakatlardan ba’zi andozalar // Экономика и социум. – 2023. – №. 4-2 (107). – C. 271-273.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda esa o‘quv yuklamasining me‘yorini belgilashda psixologik omillarni hisobga olish zarurligi qayd etiladi. Biroq amaliyotda akademik yuklama ko‘pincha standart mezonlar asosida belgilanib, talabalar temperamentiga mos tabaqalashgan yondashuv yetarli darajada qo‘llanilmayotgani kuzatilmoqda.

Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, temperament va o‘quv faoliyati o‘rtasidagi bog‘liqlik nazariy jihatdan yetarlicha asoslangan bo‘lsada, akademik yuklamani temperament turlariga moslashtirish masalasi hali ham dolzarb muammo sifatida saqlanib qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda temperamentga asoslangan tabaqalashgan akademik yuklama modelini ishlab chiqish va uning samaradorligini aniqlash maqsadida kompleks metodologik yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy, empirik va statistik usullardan foydalanildi.

1. Nazariy tadqiqot usullari

- Ilmiy-adabiyotlar tahlili – temperament nazariyalari, shaxsning individual-psixologik xususiyatlari hamda o‘quv yuklamasini me‘yorlash masalalariga oid ilmiy manbalar o‘rganildi va tizimlashtirildi.

- Qiyosiy-tahliliy usul – mavjud akademik yuklama tizimi hamda individual yondashuv asosidagi ta‘lim modellari o‘zaro solishtirildi.

- Model ishlab chiqish (modellashirish usuli) – temperament turlariga mos ravishda akademik yuklamaning hajmi, murakkablik darajasi va muddatlarini tabaqalashtiruvchi konseptual model ishlab chiqildi.

- Tizimli yondashuv – ta‘lim jarayoni yaxlit pedagogik tizim sifatida ko‘rib chiqildi va temperament omilining undagi o‘rni asoslandi.

2. Empirik tadqiqot usullari.

- Psixologik diagnostika – talabalarning temperament turlarini aniqlash maqsadida shaxs tipologiyasini o‘lchovchi test metodikalari qo‘llanildi (masalan, Hans Eysenck tomonidan ishlab chiqilgan shaxs so‘rovnomasi asosida).

- Pedagogik kuzatuv – talabalar faoliyati, charchash darajasi va o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari tizimli ravishda kuzatildi.

- So‘rovnoma va anketa – talabalar motivatsiyasi, o‘quv yuklamasini qabul qilish darajasi va subyektiv qiyinchilik ko‘rsatkichlari o‘rganildi.

- Pedagogik tajriba (eksperiment) – tadqiqot nazorat va tajriba guruhlarida olib borildi. Tajriba guruhida temperamentga moslashtirilgan akademik yuklama modeli joriy etildi, nazorat guruhida esa an‘anaviy tizim saqlab qolindi.

3. Statistik va matematik usullar.

- Olingan natijalarni qayta ishlashda matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

- Guruhlar o‘rtasidagi farqlarni aniqlash uchun foizli taqqoslash, o‘rtacha arifmetik ko‘rsatkichlar va dispersiya tahlili qo‘llanildi.

- Natijalarning ishonchliligi statistik mezonlar asosida tekshirildi.

4. Tadqiqotning metodologik asoslari.

Tadqiqot shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim konsepsiyasi, differensial yondashuv tamoyili hamda psixologiyada temperamentning nerv tizimi xususiyatlari bilan bog‘liqligi haqidagi ilmiy qarashlarga tayandi (xususan, Ivan Pavlovning oliy nerv faoliyati tiplari haqidagi ta‘limoti).

Qo‘llanilgan uslublar tadqiqot muammosini har tomonlama o‘rganish, ishlab chiqilgan modelning nazariy asoslanganligini ta‘minlash hamda uning amaliy samaradorligini eksperimental jihatdan tekshirish imkonini berdi.

Tahlil va natijalar. Mazkur tadqiqot doirasida talabalar temperamentiga mos akademik yuklama taqsimotining ta‘lim samaradorligiga ta‘siri sinov-tajriba asosida o‘rganildi. Tadqiqot tajriba-sinov ishlari oliy ta‘lim muassasasida o‘qiyotgan, o‘zlashtirish darajasi va akademik faolligi o‘rtacha bo‘lgan 3 nafar talaba bilan olib borildi. Tadqiqot jarayonida har bir talabaning

temperament turi aniqlanib, ularga mos holda akademik yuklama hajmi, mustaqil ishlar ulushi va nazorat shakllari tabaqalashgan tarzda belgilandi. Tajriba natijalari akademik o‘zlashtirish, o‘quv faolligi, topshiriqlarni bajarish sifati hamda psixologik holat ko‘rsatkichlari orqali baholandi.

Sinov-tajriba natijalariga ko‘ra, sangvinik temperamentga ega talabada akademik yuklama moslashtirilgandan so‘ng o‘quv faolligi va topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarish ko‘rsatkichlari sezilarli darajada oshgani kuzatildi. Ushbu talaba guruhli ishlarda va og‘zaki muhokamalarda yuqori natija ko‘rsatdi.

Xolerik temperamentga ega talabada yuklama miqdorini qisqa muddatli, ammo murakkab topshiriqlar shaklida tashkil etish ijobiy samara berdi. Natijada uning diqqat jamlashi va yakuniy baholari barqarorlashdi, haddan tashqari zo‘riqish holatlari kamaydi.

Flegmatik temperamentga ega talabada esa yuklamani bosqichma-bosqich, aniq reja asosida taqsimlash orqali mustaqil ishlar sifati va topshiriqlarni yakunlash darajasi oshdi. Ushbu talaba barqaror, ammo sekin sur‘atda ijobiy o‘shishni namoyon etd (1-jadval).

1-jadvalda keltirilgan natijalardan ko‘rinadiki, talabalar temperamentiga moslashtirilgan akademik yuklama barcha uch holatda ham ijobiy natija bergan. Xususan, o‘zlashtirish darajasi o‘rtacha 8-15 foiz oralig‘ida oshgan, topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarish ko‘rsatkichlari esa 10-15 foizga yaxshilangan.

**Talabalar temperamentiga mos akademik yuklama taqsimotining sinov-tajriba natijalari
1-jadval**

№	Talabaning temperament turi	Akademik yuklama moslashuvi	O‘zlashtirish darajasi (%)	Topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarish (%)	O‘quv faolligi (5 ballik tizimda)
1	Sangvinik	Moslashtirilgan	78 → 88	80 → 95	3.8 → 4.6
2	Xolerik	Moslashtirilgan	70 → 85	75 → 90	3.5 → 4.4
3	Flegmatik	Moslashtirilgan	74 → 82	78 → 88	3.6 → 4.2

Manba: 1-jadval muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Eng yuqori o‘shish sur‘ati sangvinik va xolerik temperamentli talabalar misolida kuzatilgan bo‘lsa, flegmatik talaba barqaror, ammo sekinroq ijobiy o‘shishni namoyon etgan. Bu holat akademik yuklamani temperamentga moslashtirish talabaning psixologik holatini yengillashtirishi, o‘quv jarayoniga bo‘lgan qiziqishini oshirishi va ta‘lim samaradorligini ta‘minlashini tasdiqlaydi.

Xulosa va takliflar. O‘tkazilgan sinov-tajriba natijalari talabalar temperamentiga mos akademik yuklama taqsimoti ta‘lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim pedagogik omil ekanligini tasdiqladi. Tadqiqot davomida turli temperamentga ega bo‘lgan talabalar misolida akademik yuklamaning hajmi, murakkablik darajasi va bajarish shakllarini tabaqalashgan asosda tashkil etish o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari, o‘quv faolligi hamda topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarish darajasiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatgani aniqlandi. Darhaqiqat, Aynaqulov M.A. Xudayberdiyev B. kabi tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, bu holat ta‘lim jarayonida yagona, standart yondashuvdan voz kechib, talabalar shaxsiy-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘quv faoliyatini rejalashtirish zarurligini ko‘rsatadi¹.

Mazkur ilmiy yo‘nalishni yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi taklif va tavsiyalarni ilgari surish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Birinchidan, oliy ta‘lim muassasalarida talabalar temperamentini aniqlashga xizmat qiluvchi psixodiagnostik vositalarni o‘quv jarayonining dastlabki bosqichlarida joriy etish lozim.

¹ Aynaqulov M.A. Xudayberdiyev B.B. Motivatsiya samaradorlik garovi sifatida // Ilmiy axborotnoma jurnali. Samarqand Davlat Universiteti. – 2020. – №. 2 (120). – C. 91.

Bu esa akademik yuklamani rejalashtirishda ilmiy asoslangan ma’lumotlarga tayanish imkonini beradi.

Ikkinchidan, fan dasturlari va o’quv rejalari doirasida akademik yuklamaning variativ modellarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish tavsiya etiladi. Bunda mustaqil ishlar, amaliy mashg’ulotlar va nazorat topshiriqlari temperament turlariga mos holda tabaqalashtirilishi maqsadga muvofiqdir.

Uchinchidan, professor-o’qituvchilarning pedagogik va psixologik kompetensiyalarini oshirishga qaratilgan malaka oshirish kurslarida temperamentga asoslangan pedagogik boshqaruv masalalariga alohida e’tibor qaratish zarur. Bu o’qituvchilarga ta’lim jarayonida individual yondashuvni samarali qo’llash imkonini beradi.

To’rtinchidan, mazkur yo’nalish bo’yicha keyingi tadqiqotlarda talabalarning son jihatidan kengroq guruhi qamrab olinishi, shuningdek, boshqa temperament turlari (melanxolik) va aralash temperamentlar misolida chuqurroq amaliy kuzatuv (empirik) tahlillar olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, talabalar temperamentiga mos akademik yuklama taqsimoti nafaqat o’quv jarayonining samaradorligini oshiradi, balki talabalar psixologik holatini muvozanatlash, akademik zo’riqishni kamaytirish va barqaror ta’lim natijalariga erishishda muhim pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Makhkamovich S.A. The Quality Education For Engineering Graphics Teaching Material Construction //JournalNX. – C. 270-277.
2. Soatov A.M. Ta’limda sifat ko’rsatkichlari va bu borada rivojlangan xorijiy mamlakatlardan ba’zi andozalar // Экономика и социум. – 2023. – №. 4-2 (107). – C. 271-273.
3. Aynaqulov M.A. Xudayberdiyev B.B. Motivatsiya samaradorlik garovi sifatida // Ilmiy axborotnoma jurnali. Samarqand Davlat Universiteti. – 2020. – №. 2 (120). – C. 91.

<p>А. Соатов</p> <p>Эффективность распределения академической нагрузки с учетом темперамента студентов</p> <p>Аннотация. В статье на основе опытно-экспериментального исследования анализируется эффективность распределения академической нагрузки с учетом темперамента студентов. На примере студентов с различными типами темперамента показано положительное влияние дифференцированной нагрузки на учебную активность, успеваемость и психоэмоциональное состояние обучающихся в условиях высшего образования.</p> <p>Ключевые слова: темперамент, академическая нагрузка, эффективность обучения, дифференциация, эксперимент, высшее образование.</p>	<p>A. Soatov</p> <p>Effectiveness of academic workload distribution based on students’ temperament</p> <p>Abstract. This article analyzes the effectiveness of distributing academic workload based on students’ temperament through an experimental study. Using examples of students with different temperament types, the research demonstrates the positive impact of differentiated workload on academic performance, learning activity, and psychological well-being within the higher education process.</p> <p>Keywords: temperament, academic workload, learning effectiveness, differentiation, experiment, higher education.</p>
---	---

ISSN 2091-5187

☞ “SERVIS” ☞

Jurnal Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tahririyat
bo‘limida nashrga tayyorlandi.

06.03.2026 yilda terishga berildi. 19.03.2026 yilda bosishga ruxsat etildi. Ofset
bosma qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84_{1/8}. “Times” garniturasini. Ofset bosma usuli.
Shartli bosma tabog‘i 15,4. Hisob-nashriyot
tabog‘i 14,37. Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 0031A/26

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining
matbaa bo‘limida chop etildi.
Litsenziya № 025316.
Reestr № X-119112.

Manzil: Samarqand shahri, Shoxruh ko‘chasi, 60-uy.

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2026.